



YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2024-yil 1-son

VOLUME 4 / ISSUE 1 / 2024

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.4.1.



Crossref
Content
Registration

ISSN: 2181-1938

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence

MUNDARIJA

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 5 HOSHIMXONOV AHROR MO'MINOVICH**
O'zbekistonda boshqaruv tizimini takomillashtirish
istiqbollari
- 14 ERGASHEV IKROM ABDURASULOVICH**
Soliq nazorati tadbirlarini amalga oshirish orqali soliq
intizomini ta'minlashning nazariy-huquqiy mexanizmlari
- 24 ABDULLAYEVA MAFTUNA MUROT QIZI**
Huquq va qonun ustuvorligi konstitutsiyaviy-huquqiy
prinsip sifatida
- 31 MAXMUDOV FIRUZ BAXTIYOR O'G'LI**
Davlat xaridlari tizimida manfaatlar to'qnashuvining
oldini olishning tashkiliy-huquqiy jihatlari
- 44 BOKIYEV JAHONGIR NURMATJON O'G'LI**
Sun'iy intellektni ta'lim olish jarayoniga tatbiq
etishning ayrim jihatlari

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI. XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 53 XAZRATQULOV ODILBEK TURSUNOVICH**
Raqamli moliyaviy xizmatlar tushunchasi, tarixiy
rivojlanish va huquqiy asoslari
- 64 АЪЗАМХУЖАЕВ УМИДХОН ШАВКАТ УГЛИ**
Национальные правовые аспекты реализации
функций государства при создании и развитии
международных транспортных коридоров
- 73 NAEEM ALLAHRAKHA**
Practices of the advertisement legislation of the
Republic of Uzbekistan

12.00.05 – MEHNAT HUQUQI. IJTIMOIY TA'MINOT HUQUQI

- 91 JAVLIYEVA GULLOLA ABDURAHIM QIZI**
Raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat munosabatlari
transformatsiyasi va notipik mehnat munosabatlari

12.00.06 – TABIIY RESURLAR
HUQUQI. AGRAR HUQUQ.
EKOLOGIK HUQUQ

101 MAXKAMOV DURBEK NEMATOVICH

Flora qonunchiligini takomillashtirish istiqbollari va zamonaviy tendensiyalar

110 XAYITOV PANJI BUXAROVICH

“Yashil” energetikani rivojlantirishning huquqiy asoslari va istiqbollari

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI.
HUQUQBUZARLIKLARNING
OLDINI OLISH.KRIMINOLOGIYA.
JINOYAT-IJROIYA HUQUQI.

117 KAMALOVA DILDORA GAYRATOVNA

Jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish va majburan to'xtatish holatlari tahlili

127 MIRZARAIMOV SARDOR TAXIROVICH

Bezorilik: jinoiy-huquqiy kvalifikatsion muammolar

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI.
KRIMINALISTIKA,
TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA
SUD EKSPERTIZASI

141 RASHIDOV BEXZOD NURBOEVICH

**ABDUVAHOBOV SHERZODBEK
ABDUVAHOBOVICH**

Jinoyat ishlarini tergov qilishda mutaxassisning protsessual maqomi

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

149 BEGATOV JASURBEK NUMONJANOVICH

Mehnat munosabatlarida kamsitishning oldini olish bo'yicha rivojlangan davlatlar tajribasi (AQSh va Yaponiya misolida)

**160 ZAHMATKASH, FIDOIY, SIVILIST OLIM VA
USTOZ RUZINAZAROV SHUXRAT
NURALIYEVICHNING YORQIN VA IBRATLI
HAYOT YO'LI**

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.4.1./PCUA5254>
UDC: 347.9:342(045)(575.1)

HUQUQ VA QONUN USTUVORLIGI KONSTITUSIYAVIY-HUQUQIY PRINSIP SIFATIDA

Abdullayeva Maftuna Murot qizi,

Toshkent davlat yuridik universiteti doktoranti,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ORCID: 0000-0002-4083-3176

e-mail: Mary.Lennox.92@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqola huquq va qonun ustuvorligi masalalari va ularning huquqiy hodisa sifatidagi tushunchalariga bag'ishlangan. Huquq ustuvorligi har qanday demokratik jamiyatning ajralmas qismi bo'lib, huquq ustuvorligi tushunchasi esa barcha mansabdor shaxslardan har bir shaxsga qadr-qimmat, tenglik, odillik va qonun doirasida munosabatda bo'lishini, har kimning har qanday qarorlar ustidan shikoyat qilish imkoniyati mavjudligini, agar bu qarorlar qonunga xilof bo'lsa, mustaqil va xolis sudlarga murojaat qilish huquqini taqozo etadi. Sudning o'zi adolatli bo'lishi kerak. Shunday qilib, huquq ustuvorligi hokimiyatni amalga oshirish hamda shaxs va davlat o'rtasidagi munosabatlarga qaratilgan. Muhim tushunchalarni "the rule of law" va "the rule of legislation" o'rtasidagi, ya'ni huquq ustuvorligi va qonun ustuvorligi o'rtasidagi farqlarni bilish zarur. Huquq ustuvorligi g'oyasi shundan iboratki, huquq mamlakatdagi har bir shaxs va institutdan, jumladan, davlatdan ham ustun turishi kerak. Ya'ni shaxslar va hokimiyat tuzilmalari ham huquqqa bo'ysunadi. Chunki huquq qadriyat bo'lib, u me'yoriy hujjatlar yig'indisiga qaraganda kengroq tushuniladi. Qonun ustuvorligi, aksincha, qonundan (normativ massiv, hujjatlar) tartibga soluvchi vosita sifatida foydalanishni nazarda tutadi. Maqolada, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi misolida Qonun ustuvorligining mazmuni tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: huquq ustuvorligi, qonun ustuvorligi, huquqiy davlat, huquq prinsiplari, iyerarxiya, oliy hokimiyat.

ВЕРХОВЕНСТВО ПРАВА И ЗАКОНА КАК КОНСТИТУЦИОННО-ПРАВОВЫЕ ПРИНЦИПЫ

Абдуллаева Мафтуна Мурот кизи,

доктор философии по юридическим наукам (PhD),
докторант Ташкентского государственного
юридического университета

Аннотация. Данная статья посвящена вопросам верховенства права и закона как концепциям и правовым явлениям. Верховенство права само по себе является неотъемлемой частью любого демократического общества, и понятие верховенства права требует, чтобы все официальные лица относились к любому человеку с уважением его достоинства, соблюдая принцип равенства, рациональности и законности, а также чтобы у каждого была возможность обжаловать любые решения в независимых и объективных судах, если эти решения, по его мнению, являются незаконными. Само судебное разбирательство должно быть справедливым. Таким образом, верховенство права ориентировано на осуществление власти и отношения между отдельным человеком и государством. В статье также проанализировано важное различие между понятиями the rule of law и the rule legislation – «верховенство права» и «верховенство закона». Идея верховенства права состоит в том, что право должно стоять

выше любого человека и всякого института в стране, в том числе государства, то есть праву подчиняются все – и люди, и властные структуры. Право – ценность, и понимается шире, чем набор нормативных актов. Оно – власть. Верховенство закона, напротив, подразумевает инструментальное использование закона (массива нормативных документов) как инструмента политической власти. В статье также проанализировано значение верховенства закона на примере Республики Узбекистан.

Ключевые слова: верховенство права, верховенства закона, правовое государство, принципы права, иерархия, высшая власть.

RULE OF LAW AND LEGISLATION AS CONSTITUTIONAL-LEGAL PRINCIPLES

Abdullaeva Maftuna Murot kizi

Doctoral Student of

Tashkent State University of Law, PhD

Abstract. This article is devoted to the issues of the rule of law and legislation as a concept and a legal phenomenon. The rule of law is itself an integral part of any democratic society, and the very notion of the rule of law requires that all officials treat every person with dignity, equality, rationality, and law, and that everyone has the opportunity to appeal any decisions in independent and impartial courts if those decisions are unlawful. The trial itself must be fair. Thus, the rule of law is focused on the exercise of power and the relationship between the individual and the state. An important substantive difference is between “the Rule of Law” and “Rule by Law” – that is, between the rule of law and the supremacy of law. The idea of the rule of law is that the law should stand above every person and every institution in the country, including the state. That is, everyone obeys the law—both people and power structures. Because law is a value, and is understood more broadly than a set of normative acts. It is power. The rule of law, on the contrary, implies the instrumental use of the law (normative array, documents) - as an instrument of political power. The article also analyzes the meaning of the Rule of law using the example of the Republic of Uzbekistan.

Keywords: rule of law, rule by law, legal state, principles of law, hierarchy, supreme authority.

Kirish

Huquq prinsiplari huquqni tushunish nazariyalariga ko'ra turlicha talqin qilinadi. Pozitivizm doirasida huquq prinsiplari amaldagi qonun hujjatlari qoidalarini umumlash-tirish shaklida taqdim etiladi va aslida qonun emas, balki qonun asosida yotgan g'oyalar sifatida harakat qiladi. Tabiiy huquq nazariyasiga muvofiq, huquq prinsiplarining mazmuni axloqiy qadriyatlar, diniy e'tiqodlar va axloqiy afzalliklarni o'z ichiga oladi. Huquqiy tushunishning bu turlari huquq tamoyillari-niing mohiyati haqidagi g'oyalarni ishlab chi-qishga, ularning to'g'ri huquqiy talqinini tak-lif qilishga imkon bermaydi. Huquq prinsipla-rining eng adekvat g'oyasiga libertar huquq nazariyasi doirasida yondashiladi, uning qoi-dalari qonun va huquq o'rtasidagi farqdan kelib chiqadi. Shu bilan birga, huquq ijobiy

qonun va axloqiy qadriyatlar sifatida emas, balki rasmiy tenglik prinsipi orqali amalga oshiriladigan erkinlik o'lchovi sifatida tush-uniladi.

Huquqshunos olim H. Odilqoriyevning fikricha, huquq prinsiplari huquqning shakl-lanish jarayoni, rivojlanishi va harakatlani-shining rahbariy g'oyasi, boshlang'ich qoi-dasi, yetakchi mezoni sifatida maydonga chiqadi. Avvalo, qonunda, huquqiy normalarda o'z tasdig'ini topadigan huquq prinsiplari jamiyatning butun siyosiy-huquqiy hayotiga, mamlakat ijtimoiy tizimiga to'laligicha singib ketadi. Ular nafaqat huquqning mohiyatini, balki uning mazmunini tavsiflaydi, uning ichki tuzilishi, statik holati bilan bir qatorda, huquqni qo'llash jarayonini, huquq faoliyatining dinamikasini aks ettiradi [1, 497-b.]. Huquqshunos olim A.V. Smirnovaning fikri-

cha, huquq prinsiplari – bular faqat yuridik fan faoliyat yuritadigan nazariy kategoriyalar emas, balki ular tartibga solish funksiyalarini bajaradigan huquqiy normalardir. Har qanday huquqiy norma kabi huquq prinsipi ham pozitiv huquqda o'z ifodasini topadi, bunday mustahkamlash orqali unga umummajburiylik sifati beriladi [2, 13-b.]. Olimlar tomonidan huquq prinsiplari asosan bosh g'oya, asos sifatida tavsiflangan. Bizning fikrimizcha, huquq prinsiplari – erkinlik, rasmiy tenglik va adolat kabi huquqning muhim xususiyatlarini aks ettiruvchi, qonunchilik va umuman huquqiy tartibga solishning huquqiy mohiyatini ta'minlovchi huquqiy norma hamda bosh g'oyalar tizimi. Tizim deyilishining sababi shundaki, bir prinsip boshqa bir prinsipning mazmunidan kelib chiqadi.

Material va metodlar

Ushbu ilmiy maqolada ilmiy bilishning ilmiy va mantiqiy uslublaridan foydalanilgan, xususan, mantiqiy tahlil, tarixiy, qiyosiy-huquqiy kabi uslublar qo'llangan.

Tadqiqot natijalari

Huquq prinsiplari huquqning asosiy qonuniyatlarini o'zida mujassam etadi. U izchil tizim bo'lib, bir-birini to'ldiradi. Huquqning asosiy prinsipi – inson huquq va erkinliklarining ustunligi prinsipi bo'lib, u aybsizlik prezumpsiyasi, tenglik, insonparvarlik, odillik kabi umumiy prinsiplarda ko'rsatilgan. Huquq prinsiplari huquqning tarmoqlararo, tarmoq va sohaviy (alohida yuridik institutlar doirasida faoliyat yurituvchi) prinsiplariga bo'linadi.

Huquq prinsiplari huquqiy tartibga solishning barcha bosqichlarida amal qiladi. Qonun ijodkorligi jarayonida qonun hujjatlarining qoidalarini shakllantirishda; huquqni muhofaza qiluvchi organlarning qonunni qo'llash jarayonida; sudlar qonunning yoki uning alohida qoidalarining konstitutsiyaviyligini tekshirishda, muayyan ishlarni ko'rib chiqishda huquq prinsiplariga tayanadilar.

Huquq prinsiplari qonunning konstitutsiyaviyligini baholash mezoni hisoblanadi.

Ularga asoslanib, normativ-huquqiy hujjatning u yoki bu qoidasi konstitutsiyaga zid deb tan olinadi; aynan huquq prinsiplariga asoslanib talqin qilish amalga oshiriladi. Huquq prinsiplarining mavjudligi Konstitutsiya va qonunlarning o'zboshimchalik bilan talqin qilinishiga yo'l qo'ymaydi. Aynan shuning uchun huquq prinsiplari ham bosh g'oya ham norma sifatida maydonga chiqadi.

Huquq prinsiplari ichida muhim va asos hisoblanuvchi prinsiplardan biri huquq ustuvorligidir (rule of law).

Huquq ustuvorligi ingliz tilida "rule of law", rus tilida "верховенство права", "господство права", o'zbek tilida "huquq ustuvorligi", "huquq ustunligi" "huquq hukmronligi" kabi atamalar bilan qo'llanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida konstitutsiya va qonun ustunligi jumlasini foydalanilgan.

Zamonaviy adabiyotlarda huquq ustuvorligi mazmunining ko'p qismini ikki nuqtada jamlash mumkin: xalq (shu jumladan, davlat ham) qonun bilan boshqariladi va unga bo'ysunishi kerak; qonun shunday bo'lishi kerakki, odamlar u bilan boshqarilishlari (boshqarilishni xohlashlari) kerak [3].

Huquq ustuvorligi – barcha fuqarolarning qonun oldida tengligini qo'llab-quvvatlaydigan, davlatning o'zboshimchaliksiz faoliyatini [4, 497-b.] ta'minlaydigan va umuman olganda hokimiyatdan o'zboshimchalik bilan foydalanishning oldini oladigan mexanizm, jarayon, institut, amaliyot yoki norma [5].

Huquq ustuvorligi Yevropa Kengashi Nizomining muqaddimasida shaxs erkinligi va siyosiy erkinliklar bilan bir qatorda "haqiqiy demokratiyaning asosini tashkil etuvchi uchta prinsiplar"dan biri sifatida qayd etilgan. Ustavning 3-moddasida yangi davlatni tashkilot a'ziligiga qabul qilishning zaruriy sharti sifatida uning huquq ustuvorligi prinsipiga hurmat bilan munosabatda bo'lishi ko'rsatilgan [6, 7-b.]. Shunday qilib, huquq ustuvorligi demokratiya va inson huquqlari bilan bir qatorda Yevropa Kengashining bir-biri bilan

chambarchas bog'liq va qisman takrorlanadigan uchta asosiy prinsiplaridan biri hisoblanadi. Huquq ustuvorligi va demokratik jamiyat o'rtasidagi yaqin munosabatlar inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudining turli xil yondashuvlarida ta'kidlab o'tilgan, misol uchun, "huquq ustuvorligini tan oladigan demokratik jamiyat", "huquq ustuvorligiga asoslangan demokratik jamiyat" va "demokratik jamiyatda huquq ustuvorligi" kabi. Inson huquqlarini hurmat qilish, pluralistik demokratiya va huquq ustuvorligi prinsiplarining ta'minlanishi – Yevropa Kengashining yagona va asosiy maqsadi hisoblanadi. Boshqacha so'z bilan aytganda, "huquq ustuvorligi" "favqulodda boy ijobiy mazmun bilan to'ldirilgan" va "juda rivojlangan jamiyat tizimining qimmatli ijtimoiy yutug'ini tashkil etadi" [7, 5-b.].

Tadqiqot natijalari tahlili

Yuqoridagi fikrlarni tahlil qilib, qayd etish joizki, Huquq ustuvorligi – davlatning va shaxsning xatti-harakatlari ustidan qonunning oliy hokimiyatini tavsiflovchi tushuncha. Bu davlat ham, shaxslar ham qonun bilan bog'liq va unga rioya qiladigan vaziyatga mos keladi. Bu avtoritar va o'zboshimchalikka asoslangan hukmronlik tushunchasiga ziddir.

Ilmiy va yuridik adabiyotlarda huquq ustuvorligi hamda huquqiy davlat tushunchalari mazmunan bir xil ma'no kasb etuvchi jumlar sifatida tavsiflanadi. Xususan, "Ummuman olganda, huquq ustuvorligi va huquqiy davlat to'g'risidagi ta'limotlar turli huquq tizimlarida rivojlangan huquq hukmronligini belgilashning ikkita variantidir. Huquq ustuvorligi doktrinasi huquqning jamiyat tizimidagi o'rnini nisbatan umumiyroq ifodalaydi, huquqiy davlat ta'limoti esa nisbatan aniqroq bo'lib, huquq va davlat o'rtasidagi munosabatlarni belgilashga qaratilgan, qonun ijodkorligi va huquq ijrosini ta'minlovchi asosiy institut sifatida davlat faoliyatining qonuniyligini va asosli cheklanishini (shu jumladan o'zini o'zi cheklashni) dasturlashga yo'naltirilgan bo'ladi. Shu bilan birga, bu ikki

ta'limot bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, qarama-qarshi harakatlanish, huquqiy tizimlarning yaqinlashishi, ularni yanada birlashtirish va uyg'unlashtirish sharoitida bu ta'limotlar orasidagi farqlar kamayadi [8, 13-b.].

V.E. Chirkin turli mamlakatlarda "qonun ustuvorligi" atamalarining paydo bo'lishi va qo'llanishi tarixini tahlil qilib, ingliz tilidagi "rule of law" ("qonun ustuvorligi"), nemis tilidagi "Rechtsstaat" ("huquqiy davlat") va qonuniylik tushunchalarida umumiylikni qayd etadi [9, 36-b.].

V.V. Ershovga ko'ra, ilmiy muomalaga rasmiy hujjatlarni mustaqil va turli huquqiy kategoriyalar – "huquq ustuvorligi" va "huquqiy davlat" sifatida kiritishni nazariy jihatdan bahsli deb hisoblaydi. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda huquqni integratsiyalashgan tushunish nuqtayi nazaridan o'zini bitta huquqiy kategoriya – "huquqiy davlat" bilan cheklash kifoya, chunki u "huquq ustuvorligi" huquqiy kategoriyasini o'z ichiga oladi [10, 32-b.]. N.I. Kozubraning fikriga ko'ra, ingliz tilidagi "rule of law" va nemis tilidagi "Rechtsstaat"ning rivojlanish tarixida sezilarli farqlar mavjud bo'lsa-da, bugungi kunda huquq ustuvorligi va qonun ustuvorligi o'rtasida sezilarli farqlarni topish uchun jiddiy asoslar deyarli yo'q deb qayd etadi [11, 173-b.].

Bizning fikrimizcha, huquqiy davlat kategoriyasi kengroq bo'lib, unda hokimiyatlar bo'linishi, davlat hokimiyatining legitimligi, davlat va mansabdor shaxslarning fuqarolar odididagi mas'uliyati, xalq hokimiyatchiligi, qonunchilikni yuqori darajasi hamda qonunlarni hurmat qilish kabi masalalarni qamrab oladi. Huquq ustuvorligi hamda huquqiy davlat kategoriyalari mazmunan bir-biriga yaqin bo'lsa-da, huquq ustuvorligi huquqiy davlatning belgisi, asosiy prinsiplaridan biridir.

Hozirgi zamon huquqiy davlati esa, avvalo, insonning huquq va erkinliklari, hokimiyatni amalga oshirishda (bevosita yoki vakillar oqali) xalqning ishtiroki ta'minlanuv-

chi demokratik davlat. U yuksak huquqiy va siyosiy madaniyat, rivojlangan fuqarolik jamiyatini nazarda tutadi. Huquqiy davlatda fuqarolarga o'z qarashlari va e'tiqodlarini qonun doirasida himoya qilish imkoniyati ta'minlanadi. Bu, xususan, siyosiy partiyalar va jamoat birlashmalarining shakllanishi va faoliyat olib borishi, siyosiy plyuralizm, so'z va matbuot erkinligi hamda shu kabilarda o'z ifodasini topadi [12, 156-b.].

Huquqiy davlat prinsipi inson huquqlarining ustuvorligi va qonun ustuvorligi bilan bir qatorda, demokratiya, hokimiyatning bo'linishi, demokratiyaning xilma-xilligi, plyuralizm va boshqalarni nazarda tutib, eng muhim insoniy va ijtimoiy qadriyatlarni ifodalaydi.

Huquqshunos olim N. Javliyev: "o'zbek tilida yozilgan huquqiy adabiyotlarda "huquq ustunligi" atamasi to'g'ridan to'g'ri uchramasa-da, uning g'oyalarini "qonun ustunligi", "huquqiy qonun ustunligi", "qonuniylik", "huquqiy qonuniylik" kabi atamalar bilan ifodalanganligini ko'rish mumkin", – deb qayd etadi [13, 48-b.]. Professor Sh. Saydullayev: "Yuridik adabiyotlarda huquq ustunligi bilan qonun ustunligi farqlanadi. Chunki har qanday qonun doimo huquqiy xarakterga ega bo'lmasligi, ya'ni o'zida insonga huquq beradigan, uning erkinligi, tengligi, ijtimoiy xavfsizligini ta'minlaydigan qoidani ifodalamasligi bois, huquq va qonun tushunchasi bir-biriga mos kelmasligi mumkin. Qonun ustunligi – barcha davlat organlari, mansabdor shaxslar jismoniy va yuridik shaxslar faoliyatida qonunning ustuvorligi hamda unga rioya etilishdir". Sh. Saydullayevni fikriga qo'shilgan holda ta'kidlab o'tish joizki, qonun har doim ham huquqiy xarakterga ega bo'lmasligi mumkin. Masalan, Amerika qo'shma shtatlarida qullik qonuniy bo'lgan, biroq huquqiy xarakterga ega bo'lmagan. Huquq ustuvorligi sof ma'noda adolat, erkinlik va tenglik tushunchalarini o'zida aks ettiradi. Shu bois qayd etish kerakki, huquq ustuvorligi kengroq tushun-

cha bo'lib, barcha tabiiy huquqlar ustuvorligi e'tirof etilsa, qonun ustuvorligi normativ-huquqiy hujjatlar iyerarxiyasidir deb xulosa qilish mumkin.

Venetsiya komissiyasi 2011-yilgi qonun ustuvorligi to'g'risidagi hisobotida bir qator mamlakatlarda qonun ustuvorligi konsepsiyasi qonun bilan hal qilinadigan davlatning har qanday xatti-harakatlari huquq ustuvorligi sifatida talqin etiladi deb ta'kidlaydi. Yoki bir qator mamlakatlarda (shu jumladan, postsovet mamlakatlarida keng qo'llanadi) huquq ustuvorligi "qonun ustuvorligi" atamasining ekvivalenti sifatida tushuniladi. Komissiya ta'kidlashicha, bunday talqinlar avtoritar davlatlar tomonidan qo'llanadi va qonun ustuvorligining zamonaviy ma'nosini aks ettirmaydi [14].

Huquq tizimida qonunning ustuvorligi – huquqiy davlatning belgilaridan biri bo'lib, u davlatning barcha, hammaga taalluqli normativ hujjatlari ichida qonunning yuqori o'rnini, nufuzini anglatadi [15, 312-b.]. Garchand Konstitutsiyada huquq ustuvorligi tushunchasi mavjud bo'lmasa ham, huquq ustuvorligini tashkil qiladigan quyidagi xususiyatlar qonunchilikda aks etgan.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonunda qonunlarni qabul qilish borasida muayyan talablar qo'yilgan. Ushbu talablar huquq ustuvorligiga formal yondashuv doirasida qonunlarga qo'yilgan umumiylik, ommaviy e'lon qilinish, tushunarlilik prinsiplarni aks ettiradi.

Huquq ustuvorligiga mazmun jihatdan yondashuvga qo'yilgan talablar qonunlar inson huquqlarining hurmat qilinishini e'tiborga olishi, adolatli bo'lish kerakligi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining mazmuniga singdirilgan. Jumladan, Konstitutsiyaning muqaddimasida inson huquqlariga sodiqlik, demokratiya va ijtimoiy adolatga sadoqat kabi so'zlar, shuningdek, Konstitutsiyaning 13-moddasida bayon etilganidek, inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni,

qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat ekani huquq ustuvorligiga mazmun jihatdan yondashuvni aks ettiradi, deb aytish mumkin.

Huquq ustuvorligining tarkibiy qismi bo'lgan qonunning ustuvorligi prinsipi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 14-moddasi hamda III bobi 15- va 16-moddalarida mustahkamlangan. Konstitutsiyaning 14-moddasiga ko'ra, davlat o'z faoliyatini qonuniylik prinsipi asosida amalga oshiradi. Konstitutsiyaning 15-moddasi birinchi qismiga muvofiq esa O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi. 15-moddaning ikkinchi qismi 14-moddadagi qonuniylik tushunchasi bilan bevosita bog'liqdir. Unga ko'ra, davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar. Buning ma'nosi shundaki, Prezidentdan tortib eng quyi bo'g'indagi mansabdorgacha barcha shaxslar Konstitutsiya va qonunlar bilan berilgan vakolatlariga ega. Ularning ushbu vakolati insonning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari boshlanadigan nuqtada tugaydi. Fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlaridan o'z ixtiyorlari bilan foydalanadilar. Biroq ular Konstitutsiya va qonunlarda belgilangan majburiyatlarni bajarishga majburdirlar. Shuningdek, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlar taqiqlagan narsalardan boshqa barcha ishlarni amalga oshirishda erkindirlar.

Xulosalar

Yuqoridagilarni tahlil qilib shuni qayd etish joizki, Konstitutsiya va qonun ustunligi prinsipini uchta jihatda ko'rib chiqish mumkin:

- huquq tizimining prinsipi sifatida, uning ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdagi yetakchi rolini anglatadi;

- davlat prinsipi sifatida, normativ-huquqiy hujjatlar iyerarxiyasida ustuvorligini anglatadi;

- qonuniylik talabi va huquqiy prinsip sifatida.

Qonun ustuvorligi to'rtta umuminsoniy prinsipga rioya qiladigan tizimni nazarda tutadi:

- 1) davlat organlari, uning mansabdor shaxslari va rasmiy vakillari qonunga bo'ysunadilar;

- 2) normativ-huquqiy hujjatlar aniq va sodda bo'lib, rasman e'lon qilinadi, barqarorlik va adolat talablariga javob beradi hamda asosiy huquqlarni, jumladan, shaxs va mulkni himoya qilishni ta'minlash va muhofaza qilishga qaratilgan;

- 3) normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish, ijro etish va ijrosini ta'minlash jarayoni ochiq, adolatli va oqilona amalga oshiriladi;

- 4) odil sudlov vakolatli, axloqiy va mustaqil subyektlar tomonidan amalga oshiriladi.

Xulosa qilib aytganda, huquq ustuvorligi bu davlatning va shaxsning xatti-harakatlari ustidan qonunning oliy hokimiyati, inson huquq va erkinliklari ta'minlanishini tavsiflovchi tushuncha. Bu davlat ham, shaxslar ham qonun bilan bog'liq va unga rioya qilishini bildiradi.

REFERENCES

1. Odilqoriyev X. Davlat va huquq nazariyasi [Theory of state and law]. Tashkent, Adolat Publ., 2021, p. 497.
2. Smirnova A.V. Printsipy prava v sisteme istochnikov sovremennogo rossiyskogo prava [Principles of law in the system of sources of contemporary Russian law]. PhD thesis. Moscow. 2020, p. 13.

3. Walker G. de Q. The rule of law: foundation of constitutional democracy. 2018.
4. "Klassik" ma'noda "Huquq ustuvorligi" ortida turgan g'oyalar, avvalambor, insonni hokimiyat o'zboshimchaligidan himoya qilish bilan bog'liq bo'lgan [The ideas behind the "Rule of Law" in the "classical" sense were primarily related to the protection of man from the arbitrariness of government]. Available at: <https://www.scribd.com/document/689938590/10-Sinf-Davlat-Va-Huquq-Asoslari-Yangi-Darslik-Kitob-2023>
5. Naomi Ch. "Rule of law". Encyclopedia Britannica, 2023. Available at: <https://www.britannica.com/topic/rule-of-law> (accessed 22.05.2023).
6. Osnovnyye prava: vyzovy i dostizheniya v 2015 godu [Basic rights: challenges and achievements in 2015]. Annual document. Luxemburg, 2016.
7. Hamson C.J. Executive Discretion and Judicial Control. An Aspect of the French. 1958, pp. 5-6.
8. Udartsev S.F., Temirbekov J.R. Kontsepsii "Rule of Law" ("verkhovenstvo prava") i "Rechtsstaat" ("pravovoye gosudarstvo"): sravnitel'nyy analiz [The concept of "Rule of Law" and "Rechtsstaat": comparative analysis]. *State and Law*, 2015, no. 5, pp.13–14.
9. Chirkin V.Y. Terminologiya verkhovenstva prava: sovremennyye varianty [Rule of law terminology: modern variants]. The rule of law and the rule of law: problems of theory and practice: Proceedings of the X International Scientific and Practical Conference, 2015, April 13-16. Available at: <http://books.google.kz/books?isbn=5040780923>
10. Yershov V.V. The essence of the principles of law. *J. Sib. Fed. Univ. Humanit. soc. sci.*, 2018, no. 11 (12), pp. 2089–2103. DOI: 10.17516/1997-1370-0375.
11. Kozyubra N.I. Verkhovenstvo prava – osnovopolagayushchiy printsip pravovoy i politicheskoy sistem Ukrainy [The rule of law is a fundamental principle of the legal and political systems of Ukraine]. Legal system of Ukraine: history, state and prospects. Harkov, Right Publ., 2011, vol. 1, p. 173.
13. Sultanova S. Interpretation of legal norms as an essential factor of correct law enforcement. *Review of Law Sciences*, 2018, vol. 2. Available at: https://uzjournals.edu.uz/rev_law/vol2/iss3/4
14. Javliyev N.B. Huquq tushunchasi va uning ijtimoiy qiymati [The concept of law and its social value]. Tashkent, TSUL Publ., 2005, 48 p.
15. 105 th Plenary Session of the Venice Commission of the Council of Europe. Available at: <https://www.venice.coe.int/images/SITE%20IMAGES/Publications/Rule%20of%20Law%20Check%20List%20-%20Russian.pdf/>
16. Axmedshayeva M.A. Hozirgi zamon davlati va huquqi nazariyasi muammolari [Problems of modern state and theory of law]. Tashkent, TSUL Publ., 2008, 312 p.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2024-YIL 1-SON

VOLUME 4 / ISSUE 1 / 2024

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.4.1.

BOSH MUHARRIR:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, professor, yuridik fanlar doktori

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

J. Allayorov

Ilmiy boshqarma boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Mas'ul muharrir: N. Ramazonov

Muharrirlar: Sh. Jahonov, Y. Mahmudov, M. Sharifova,
Y. Yarmolik, E. Mustafayev

Musahhih: K. Abduvaliyeva

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.

Faks: (0371) 233-37-48.

Veb-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1387.

Jurnal 26.03.2024-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli bosma tabog'i 19,3.

Adadi: 100. Buyurtma raqami: 37.

TDYU tipografiyasida chop etildi.